

MOYCHECHAK GULLARI (FLORES CHAMOMILLAE) YANGI DORI VOSITALARINI YARATISH UCHUN ISTIQBOLLI MANBA

Muzaffarova Maloxat Safarovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

KIRISH

Moychechak gullari astradoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub, madaniylashtirilgan va yovvoyi holda o'suvchi bir yillik dorixona moychechagi o'tsimon o'simligi "Chamomilla recutita L." Rauscheri, *Matricaria recutita L.*, *Matricaria chamomilla L.*, gullashi boshlanganida yig'ilgan va quritilgan gullari (gul savatchalari).

Asosiy qism. Moychechak gullarida P guruhi vitaminlari, A provitamini, ko'pgina organik kislotalar (jumladan, C vitamini) va boshqa biologik faol elementlar saqlanadi [1,37]. Shuningdek, moychechakda efir moyi bor, efir moyining tarkibiga esa xamazulen, terpen, nonilat, sekviterpen, spirtlar, kandinen, shuningdek, kaprilat va izovaleriat kislotalari kiradi [2,38]. Efir moyidan tashqari, gullaridan kversimetrin, proxamazulen, laktonlar, umbelliferon, gerniarin, dioksikumarin, triakantan, nikotinat kislota, xolin, finosterin, salisilat kislota, gliseridlar, askorbinat kislota, karotin, flavonoidlar, pektinlar, oqsillar, shilimshiq moddalar va yelim ajratib olingan [3,39].

Ibn Sino ta'riflaganidek, moychechak qizdiruvchi va xilti yetiltiruvchi xususiyatga ega [4,40]. Tiqilmalarning va tomirlarning og'izlarini ochadi, terlatadi [5,41]. Erituvchi va suyultiruvchi ta'sirga ega [6,42]. Me'dadagi issiqdan bo'lgan shishni va qotib qolgan qonni eritadi, sovuqdan bo'lgan shishlarni yo'qotadi [7,42]. Oqma yaralarda foyda qilib, qovjiragan yaralarni ko'chiradi, tuzalishi qiyin yaralarni tozalaydi [8,43]. Mushak va asab jarohatlarida davo bo'lib, yangi uzilgan guli hidlansa, uxlatadi [9,44]. Peshob, savdo va balg'amni so'radi, bavo'sirni davolaydi, qovuq og'rig'iga, taloq qattiqligiga shifo bo'ladi [10,45].

Shuningdek ko'z og'rig'ida, ko'z nuri xiralashganida, toshmalarda, qichimada foyda qiladi [11,46]. Xalq tabobatida moychechak gullaridan tayyorlangan dorivor vositalar (qaynatma, damlama, malham, sharbat, yog') miya, bosh, tish, quloq, ko'z og'riqlarini, oshqozon-ichak, asab, o'pka, jigar, buyrak, shamollash va boshqa kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladi [12,47].

Moychechak yallig'lanishga qarshi ishlatiladi, o't haydovchi bo'lib, antiseptik ta'sir ko'rsatadi [13,48]. Shuningdek, asabni tinchlantiradi, ishtahani ochadi, o't ajralishini kuchaytiradi [14,49]. Og'riq qoldirish xususiyati bor va ichakda bijg'ish jarayonini kamaytiradi. Allergik reaksiyalarni susaytiradi [15,50]. Moychechak glikozidlari parasimpatik nerv sistemasini o'rab olib, shu tariqa silliq muskullarni bo'shashtiradi va spazmni bartaraf etadi [16,51]. Regenerasiya jarayonini tezlashtiradi. Moychechak safro ajralishini me'yorlashtirish, qorin bo'shlig'idagi ichki

a'zolar siqilishining oldini olish, mikroblarga qarshi kurashish xususiyatlariga ega [17,52].

U xalq tabobatida bavosil (gemorroy), o't pufagida tosh paydo bo'lishi, ayollar jinsiy a'zolari kasalliklari, homiladorlikdagi toksikoz, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, yarali kolit va boshqa dardlarni davolashda qo'llaniladi [18,53].

Moychechakdan yana surunkali gastritlarda, xolesistitda, o't yo'llari diskineziyasida, surunkali gepatitlarda foydalaniladi [19,54]. Moychechak xushbo'y (vanna qilish uchun), yel haydovchi, tinchlantiruvchi, yumshatuvchi yig'malar tarkibiga kiradi [20,55]. Qadimda nefrit, sistitda, bezgak, isitma mahallarida, uyqusizlikda moychechak damlamasi buyurilgan [21,56]. Moychechak gullaridan tayyorlangan qaynatmaga tuz qo'shib revmatizm, podagra kasalliklarida, chipqonda ishlatilgan [22,57].

Moychechak me'daga kuch beradi, uning og'rig'ini qoldiradi. Gulida yiringlashning oldini oluvchi quvvat bor. Undan eyilsa, oq qon tanachalarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Gulini xuddi choyga o'xshatib damlab ichadilar [23,58]. U me'da yarasini yo'qotadi.

Bargi ovqatni tez hazm qildiradi, miyaga quvvat beradi, asabni tinchlantiradi, sutni va terni ko'paytiradi. Miya va bosh og'rig'ini yo'qotadi, burundan suv oqishini to'xtatadi. Nafas siqishi, sariq va bod kasalini davolaydi. Safro tugunchalarini yechadi, buyrak toshini maydalab, tashqariga chiqaradi. Balg'am va ichak sanchig'ini yo'qotadi. Bargi va tanasi chaynalsa, og'iz qurishini, suvi esa ko'z og'rig'ini ketkazadi. Poya-barg tutuni esa hasharotlarni quvadi [24,59].

Moychechak miyani kuchli qiladi va sovuqdan bo'lgan bosh og'rig'ida foyda qiladi. Boshdan yomon moddalarni chiqarish uchun ishlatiladi [25,60]. Uni qo'yib bog'lansa, ko'zning burun shuningdek, ko'z og'rig'ida, ko'z xiralashganda, toshmalarda, qichimada, ko'z qo'tirida foyda qiladi. Balg'amni ko'chiradi, siydikni haydaydi va toshni chiqaradi. Ayniqsa, gulining gunafsha tusli xili shunday ta'sirga ega. Sovuqda va issiqda bo'lgan qovuq og'riqlarida qizdirilib qo'yiladi. Bu charchashga qarshi ishlatiladigan dorilarning boshqalariga qaraganda eng ko'p foydalisidir. Uni chopib maydalab ovqatlarga solib iste'mol qilishadi [26,61]. Gulidan sochni bo'yaydigan rang tayyorlaydilar.

Bu rang kashtan rangli sochni xurmo rangli sochga, xurmo ranglini tillo rangli sochga aylantiradi, soch nihoyatda shaffof va yaltiroq bo'ladi. Gullarini tuyib qo'yib bog'lansa, shishlarni qaytaradi, qattiq a'zolarini yumshatadi.

Agar buni suvda qaynatib, o'sha suv ichilsa, badan a'zolaridagi tiqilmalarni ochadi. Aytganimizdek, yana miya va asablarni kuchli qiladi, jinsiy quvvatni oshiradi, zaharlarga qarshi taryok bo'ladi, ter, sut, peshob va hayzni ravon keltiradi, miya va bosh og'rig'iga aloqador xastaliklarga dori bo'ladi, tumovlarni bartaraf qiladi, ko'zga oid og'riqlar va quloq ichidagi bodni tahlil qiladi, nafas qisishi, qusish va sariq xastaliklarini daf etadi, ko'krak ichi a'zolarining dardlari, jigar, qorin va bachadon

kasalliklarini bosadi [27,62]. Shuningdek, ana shu a'zolarning shishlarini tuzalishga olib boradi va qaytaradi. Shu bilan birga badanni yomon va zararli axlatdan tozalaydi. Ana shu giyohning guli qaynatilgan suvda kindikkacha kirib o'tirilsa, yuqorida aytilgan xastaliklarning oldini olish mumkin va muolajasida foydasi bo'ladi. Moychechak bizning iqlim sharoitimizda o'sishga moslashgan bir yillik guldir [28,63]. Bo'yi 15-60 santimetr keladi. Ildizi ingichka ildiz, och qo'ng'ir tusda bo'ladi. Poyalari yakka-yakka bo'lib, to'g'ri o'sadi, aksari juda shoxlab ketadi, ichi kovak. Barglari navbatma-navbat joylashgan, patsimon qirqilgan. Poyalari va shoxlarining uchidan uzun bandlari bo'ladigan gullar chiqadi, gullari asosan oq rangda, chekkalari tilsimon. Mevasi qo'ng'ir-yashil tusli, cho'zinchoq urug'li meva. May oyidan boshlab kuzgacha gullaydi [29,64].

Moychechakning yaxshi ochilgan savatchadagi gullari ishlatiladi. U tomorqalarga, istirohat bog'lariga, ko'cha bo'ylariga ekiladi, gulxonalarda maxsus ko'paytiriladi. Shuningdek, tog' va adirlarda yovvoyi holda ham o'sadi. Yuqorida aytganimizdek, gulbandi tarkibida 0,8 foizgacha efir moylari bo'lgani bois aynan may-avgust oylarida terib olinadi va xalq tabobati hamda an'anaviy tibbiyotda muolaja uchun ishlatiladi [30,65]. Yovvoyi holda o'sadigan dorivor moychechakni terib olishda tashqi ko'rinishidan unga o'xshash, ammo shifobaxsh xususiyatlari bo'lmagan boshqa xil gullardan farqlay bilish kerak. U ana shu gullardan o'ziga xos o'tkir hidi bilan ajralib turadi. Yovvoyi moychechakni odatda bir yilda bir marta endi gullagan paytida terib olishadi. Yomg'irdan keyin, shudring yoki tuman tushganda terilgan gulbandlar quritilganda qorayib, mog'or bosib qolishi mumkin [35,70]. Shuning uchun moychechakni issiq va havo ochiq kunlari terish kerak. Moychechakni ochiq havoda quruq qog'oz yoki mato ustiga 5 santimetr qalinlikda yoyib qo'yib quritish lozim. Ammo gulbarglari to'kilib ketmasligi uchun uni ag'darish tavsiya etilmaydi. Havo yaxshi bo'lsa, moychechak odatda 5-7 kunda qurib qoladi [36,72].



1-rasm. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti qoshidagi dorivor o'simliklar yetishtriladigan yer uhastkasida mahalliyashtirilgan moychechak o'simligi

Moychechakning tibbiyotda “Lepidotheka suaveolens” deb nomlanadigan, oddiy xalq tilida esa “Hidli moychechak” deyiladigan turi ham bor [31,66]. Dorivor moychechakdan farqli ravishda hidli moychechakdan faqatgina tashqi muolaja, ya’ni surtma va kompresslar tayyorlashdagina foydalanish mumkin, xolos.

Moychechakning gulidan ildizigacha, bargidan urug’igacha ko’p dardlarga shifo. Davolanish uchun moychechakdan damlama ko’rinishida ishlatiladi [32,67]. Damlamani tayyorlash uchun 10 g (3 osh qoshiq) moychechak gullari yoki 10 ta (1 g dan) filtr-paketni emallangan idishga solinadi, ustidan 200 ml (1 stakan) xona haroratidagi qaynatilgan suv quyiladi, idishni qopqog’i yopilib, qaynab turgan suv hammomida, 15 daqiqa qizdiriladi, so’ngra xona haroratida 45 daqiqa davomida sovutiladi va dokadan o’tkaziladi, qolgan hom-ashyo siqiladi (filtr-paketlar olinadi va dokasiz siqiladi). Olingan damlama hajmi qaynatilgan suv bilan 200 ml gacha etkaziladi. Damlamani salqin joyda ikki sutkagacha saqlash mumkin [33,68]. Kattalarga 2 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan oldin qabul qilinadi. Bolalarga 1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta buyuriladi. Damlamani sirtga chayishlar, primochkalar, vannalar ko’rinishida qo’llaniladi [34,69].

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Нигора, Н. М. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ “LINI SEMINA” В МЕДИЦИНЕ ДЛЯ ЛЕЧЕНИЕ ЗАБОЛЕВАНИЙ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(6), 16-22.

2. Музаффарова, Н. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ “LINI SEMINA” В МЕДИЦИНЕ ДЛЯ ЛЕЧЕНИЕ ЗАБОЛЕВАНИЙ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(5 Part 3), 355-361.

3. Музаффарова, Н. С. (2023). ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ГАСТРОЭЗОФАГЕАЛ РЕФЛЮКС КАСАЛЛИГИ ҲАМДА МЕЪДА КАСАЛЛИКЛАРИ ВА УНГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШИШ. REANDPUB. UZ, 28.

4. Safarovna, M. N. (2024). HERBAL PREPARATIONS FROM MILK THISTLE: MECHANISMS OF ACTION AND APPLICATION IN LIVER DISEASES. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 3(6), 293-299.

5. Safarovna, M. N. (2024). HERBAL PREPARATIONS FROM MILK THISTLE: MECHANISMS OF ACTION AND APPLICATION IN LIVER DISEASES. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 3(6), 293-299.

6. Safarovna, M. M. (2024). QIZILMIYA (SHIRINMIYA) DORIVOR O’SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTDA QO’LLANILISHI. JOURNAL OF AGRICULTURE AND LIFE SCIENCES, 7(3), 32-36.

7. Safarovna, M. M. (2024). EFIR MOYLARI SAQLAGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA TIBBIYOTDA ISHLATILISHI. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(3), 30-35.

8. Safarovna, M. M. (2023). To'g'ri Ovqatlanish-Maktabgacha Bo'lgan Bolalar Salomatligi Garovi. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 6(5), 22-27.

9. Дубинина, Н. В., Самадов, Б. Ш., Тищенко, И. Ю., Дубініна, Н. В., & Тищенко, І. Ю. (2020). Вирусные гепатиты с парентеральным механизмом передачи: современные подходы к лечению.

10. Samadov, B. S., Yaremenko, V. D., & Berezniakova, N. L. (2018). Standartization of active pharmaceutical ingredients in combined dosage form.

11. Швець, І. О., Самадов, Б. Ш., Ільїна, Т. В., & Ільїна, Т. В. (2017). Навчальна практика з фармакогнозп-складова частина професійної підготовки провізора.

12. Samadov, B., Sych, I. A., Shpychak, T. V., & Kiz, O. V. (2017). Quantitative determination by potentiometric titration method of active pharmaceutical ingredients in complex dosage form.

13. Самадов, Б. Ш., Жалилов, Ф. С., Жалилова, Ф. С., & Шарипова Э.М. (2021). ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО СЫРЬЯ "МОМОРДИСА CHARANTIA L", ВЫРАЩИВАННОГО В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Вестник науки и образования, (15-1), 106-110.

14. Дубинина, Н. В., Самадов, Б. Ш., & Тищенко, И. Ю. (2021). Создание вакцин для профилактики и лечения ВИЧ.

15. Samadov, B. S. (2022). THE USE OF THE MEDICINAL PLANT MOMORDICA CHARANTIA L IN FOLK MEDICINE. Asian journal of pharmaceutical and biological research, 11(2).

16. Bakhodirjon Sharipovich Samadov. (2022). THE CHEMICAL COMPOSITION OF THE MEDICINAL PLANT MOMORDICA CHARANTIA L USED IN FOLK MEDICINE. Thematics Journal of Chemistry, 6(1).

17. Samadov, B. S. (2022). ANATOMICAL STRUCTURE OF THE MEDICINAL PLANT MOMORDICA CHARANTIA L. Thematics Journal of Botany, 6(1).

18. Самадов, Б. Ш., Болтаев, М. М., Мелибоева, Ш. Ш., & Жалилов, Ф. С. (2022). ГИПОЛИПИМИДЕМИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ СЫРЬЯ ПЛОДЫ МОМОРДИКА ХАРАНЦИЯ (МОМОРДИСА CHARANTIA L). Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(8), 26-35.

19. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., Ziyaeva, D. A., Sharipova, D. S., Ozodova, N. X., & Norova, H. U. & Kudina, OV (2020). Pharmacological properties and chemical composition "Momordica charantia l.

20. Самадов, Б. Ш. (2020). Жалилов Фазлиддин Содикович, Жалилова Феруза Содиковна. ВЫРАЩИВАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ

«MOMORDICA CHARANTIA L» В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. Вестник науки и образования, (21-1), 99.

21. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). COMPOSITION AND TECHNOLOGY OF COLLECTION OF INDIAN POMEGRANATE OBTAINED FROM MEDICINAL PLANT RAW MATERIALS. Редакційна колегія, 40.

22. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). ANALYSIS OF THE COMPONENTS OF THE COLLECTION OF MEDICINAL PLANT RAW MATERIALS OF INDIAN POMEGRANATE. Редакційна колегія, 43.

23. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). PROSPECTS FOR OBTAINING DOSAGE FORMS BASED ON MOMORDICA CHARANTIAL. Редакційна колегія, 37.

24. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). PROSPECTS FOR OBTAINING DOSAGE FORMS BASED ON LOCALIZED INDIAN POMEGRANATE. Редакційна колегія, 169.

25. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., Юлдашева, Д. Х., Джалилова, Ф. С., Болтаев, М. М., & Мелибоева, Ш. Ш. к. (2022). ПРИМЕНЕНИЕ В НАРОДНЫЕ МЕДИЦИНЫ ПЛОДЫ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ MOMORDICA CHARANTIA L. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(4), 117–133. <https://doi.org/10.55475/jcgtm/voll.iss4.2022.76>

26. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., Юлдашева, Д. Х., Джалилова, Ф. С., Болтаев, М. М., & кизи Мелибоева, Ш. Ш. (2022). XALQ TABOVATIDA ISHLATILADIGAN MOMORDICA CHARANTIA L DORIVOR O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(4), 134-161. DOI: <https://doi.org/10.55475/jcgtm/voll.iss4.2022.86>

27. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). PROSPECTS FOR OBTAINING DOSAGE FORMS BASED ON MOMORDICA CHARANTIA L. Scientific progress, 3(8), 29-32.

28. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). PROSPECTS FOR OBTAINING DOSAGE FORMS BASED ON LOCALIZED INDIAN POMEGRANATE. Scientific progress, 3(8), 33-41.

29. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). COMPOSITION AND TECHNOLOGY OF COLLECTION OF MOMORDICA CHARANTIA L OBTAINED FROM MEDICINAL PLANT RAW MATERIALS. Scientific progress, 3(8), 42-48.

30. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). ANALYSIS OF THE COMPONENTS OF THE COLLECTION OF MEDICINAL PLANT RAW MATERIALS OF MOMORDICA CHARANTIA L. Scientific progress, 3(8), 49-57.

31. Samadov, B. S., Zhalilov, F. S., & Zhalilova, F. S. (2022). HYPOLIPIDEMIC ACTIVITY OF THE MEDICINAL PLANT MOMORDICA HARANTIA. Medical Scientific Bulletin of Central Chernozemye (Naučno-medicinskij vestnik Central'nogo Černozem'â), (89), 57-69.

32. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., & Джалилова, Ф. С. (2022). MOMORDICA CHARANTIA L DORIVOR O'SIMLIGINING ANATOMIK TUZILISHI. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(5), 123-149. <https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol1.iss5.2022.109>

33. Samadov, B. S., Jalilov, F. S., Yuldasheva, D. H., Jalilova, F. S., Boltayev, M. M., & qizi Meliboyeva, S. S. APPLICATION IN FOLK MEDICINE FRUITS OF THE MEDICINAL PLANT MOMORDICA CHARANTIA L.

34. Samadov, B. S., Jalilov, F. S., Yuldasheva, D. H., Boltayev, M. M., & qizi Meliboyeva, S. S. THE CHEMICAL COMPOSITION OF THE MEDICINAL PLANT MOMORDICA CHARANTIA L USED IN TRADITIONAL MEDICINE.

35. Samadov, B. S., & Musaeva, D. M. (2020, March). Trends in the development of the epidemic process of hepatitis C in Uzbekistan. In Proceedings of the 4th International Scientific and Practical Conference "Faces-people. Current problems of pharmacotherapy and recognition of medicinal benefits. Kharkiv (Vol. 1, p. 431).

36. Samadov, B. S., Musaeva, D. M., & Dubinina, N. V. (2020). Comparative characteristics and trends in the development of the epidemic process of hepatitis C in Ukraine and Uzbekistan. *New Day in Medicine*, 1(29), 284-290.

37. Samadov, B. S., Jalilov, F. S., & Jalilova, F. S. (2022). DOSAGE FORMS BASED ON THE MEDICINAL PLANT MOMORDICA CHARANTIA L. *Medical Scientific Bulletin of Central Chernozemye (Naučno-medicinskij vestnik Central'nogo Černozem'â)*, (90), 10-18.

38. Samadov B. S. MAGNESIUM DEFICIENCY AND ITS CORRECTION WITH VEGETABLE TINCTURE TINCTURAE MORUS //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 4-12.

39. Самадов, Б. Ш., Жалилов, Ф. С., Жалилова, Ф. С., & Дубинина, Н. В. (2022). Антимикробная активность лекарственного растительного сырья "Momordica charantia L."

40. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., Мусазода, С. М., & Джалилова, Ф. С. (2023). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ ФОРМЫ НА ОСНОВЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ MOMORDICA CHARANTIA L. Журнал химии товаров и народной медицины, 2(1), 139–162. <https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol2.iss1.2023.149>

41. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., Мусазода, С. М., & Джалилова, Ф. С. (2023). MOMORDICA CHARANTIA L DORIVOR O'SIMLIGI ASOSIDAGI DORI SHAKLLARI. Журнал химии товаров и народной медицины, 2(1), 139-162. <https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol2.iss1.2023.149>

42. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., Юлдашева, Д. Х., Джалилова, Ф. С., & Болтаев, М. М. кизи Мелибоева, ШШ (2022). Применение в народные медицины плоды лекарственного растения Momordica Charantia L. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(4), 117-133.

43. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., Ziyaeva, D. A., Sharipova, D. S., Ozodova, N. X., Norova, H. U., ... & Kudina, O. V. (2020). Pharmacological properties and chemical composition “*Momordica charantia* L”.

44. Dubinina, N., Tishchenko, I., Koshova, O., Kalinichenko, S., & Samadov, B. (2023). MEDICAL SCIENCES. CHEMICAL SCIENCES, 110, 25

45. Самадов Б.Ш., Ф.С.Жалилов, С.М.Мусозода. Химический состав и технология получения сухого экстракта на основе плодов *Momordica charantia* L, выращенного в Бухарской области республики Узбекистан // «Наука и инновация» - 2023 - №2. С. 82-91.

46. Самадов, Б. Ш. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУРНО-МОРФОЛОГИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ *MOMORDICA CHARANTIA* L. Научный Фокус, 1(3), 309-321.

47. Sh, S. B., Musozoda, S. M., Xolnazarov, F. B., Musoev, R. S., Rahmonov, A. U., & Maksudov, K. S. (2023). DEVELOPMENT OF THE COMPOSITION OF SUPPOSITORIES BASED ON NUTMEG SAGE, GROWING IN TAJIKISTAN. Научный Фокус, 1(3), 294-299.

48. Самадов, Б. Ш., & Шамсиева, Т. (2023). АНТИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ МОМОРДИКА ХАРАНЦИЯ (*MOMORDICA CHARANTIA* L). Научный Фокус, 1(4), 81-89.

49. Самадов, Б. Ш., Жалилова, Ф. С., Жалилов, Ф. С., & Муродова, Н. А. (2020). ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ “*MOMORDICA CHARANTIA* L”. Новый день в медицине, (1), 379-381.

50. Tishchenko, I., Dubinina, N., Filimonova, N., Samadov, B., & Peretyatko, O. (2023). HCV: features and insidiousness.

51. Sharipovich, S. B., Fatkhulloevich, R. I., & Mirahmad, M. S. (2023). ANALYSIS OF THE EXPECTORANT MEDICINES MARKET IN THE PHARMACEUTICAL MARKET OF TAJIKISTAN. Научный Фокус, 1(6), 295-300.

52. Sh, S. B., Dexkanov, S. S., Nurullayev, M. N., Olimova, N. I., & Narzulaeva, U. R. (2023). THE ROLE OF ENGLISH AND LATIN IN THE STUDY OF MEDICAL AND PHARMACEUTICAL TERMS. Научный Фокус, 1(6), 315-323.

53. Самадов, Б. Ш., & Зиёева, Д. А. (2023). РОЛЬ АНГЛИЙСКОГО И ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА ПРИ ИЗУЧЕНИИ МЕДИЦИНСКИХ И ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ. Научный Фокус, 1(6), 324-332.

54. Samadov B. S. CORRECTION MAGNESIUM DEFICIENCY WITH TINCTURE TINCTURAE MORUS //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 369-377.

55. Dubinina N. V., Samadov B. S., Tishchenko I. Y. Studying the antimicrobial and antiviral potential of *Momordica charantia* L. – 2022.

56. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., Jalilov, F. S., & Murodova, N. A. (2020). Pharmacological properties and chemical composition of medicinal plant raw materials "Momordica charantia L". *New Day in Medicine*, 1(29), 379-381.
57. Sh, S. B., Zhalilova, F. S., & Zhalilov, F. S. (2020). Murodova NA Farmakologicheskie svoystva i himicheskij sostav lekarstvennogo rastitel'nogo syr'ja" Momordica Charantia. *Novyj den'v medicine*, 1(29), 379-381.
58. Чемезов, С. А., Самадов, Б. Ш., Сахновская, Е. Г., & Мусатаева, И. С. СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: ООО" Издательский дом" Академия естествознания", Кубанский государственный медицинский университет, Камская государственная инженерно-экономическая академия, Кемеровский государственный университет, (3), 30.
59. Samadov, B. S., Jalilov, F. S., Yuldasheva, D. H., Jalilova, F. S., Boltaev, M. M., & Meliboeva, S. S. (2022). XALQ TABOBATIDA ISHLATILADIGAN MOMORDICA CHARANTIA L DORIVOR O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI. *Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine*, 1(4), 134-161.
60. Samadov B., Shamsieva M., Dubinina N. Antimicrobial activity of the raw materials of the medicinal plant "Momordica charantia L" against helicobacter pylori. – 2024.
61. Dubinina N., Tishchenko I., Samadov B. Creation of vaccines to prevent hepatitis C. – 2024.
62. Tishchenko, I., Dubinina, N., Filimonova, N., Koshova, O., & Samadov, B. (2024). Parenteral viral hepatitis: stages of improving methods for determining main markers of infection.
63. Самадов, Б. Ш., Джалилов, Ф. С., Юлдашева, Д. Х., Джалилова, Ф. С., Болтаев, М. М., & Мелибоева, Ш. Ш. к.(2022). ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ MOMORDICA CHARANTIA L, ПРИМЕНЯЕМОГО В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ. *Журнал химии товаров и народной медицины*, 1(4), 134-161.
64. Samadov B., Shamsieva M., Dubinina N. Antimicrobial activity of the raw materials of the medicinal plant "Momordica charantia L" against helicobacter pylori. – 2024.
65. Самадов, Б. Ш., Мусаева, Д. М., & Дубинина, Н. В. (2019). Сравнительная характеристика и тенденции развития эпидемического процесса гепатита С в Украине и в Узбекистане. *Новый день в медицине*, (4), 284-290.
66. Самадов Б. Ш., Жалилова Ф. С., Жалилов Ф. С. ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПЛОДЫ "MOMORDICA CHARANTIA L" ВЫРАЩЕННОГО В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Матеріали ІХ Міжнародної науково-практичної internet-конференції «Сучасні досягнення фармацевтичної технології». Харків, НФаУ. Редакційна колегія. – 2021. – С. 3-7.

67. Б.Ш. Самадов, Ф.С. Жалилова, Ф.С. Жалилов, Н.А. Муродова., Фармакологическая свойства и химический состав лекарственного растительного сырья “*Momordica Charantia L*”. Матеріали IV Міжнародної науково-практичної конференції. Харків, НФаУ, 2020. С. 426-430.

68. Самадов, Б. Ш., Жалилова, Ф. С., Жалилов, Ф. С., & Муродова, Н. А. (2020). ФАРМАКОЛОГИЧЕСКАЯ СВОЙСТВА И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ “*МОМОРДИСА CHARANTIA L*”. Новый день в медицине. Научно-реферативный, духовно-просветительский журнал, 1, 29.

69. Дубинина, Н. В., Дубініна, Н. В., Самадов, Б. Ш., Тищенко, И. Ю., & Тищенко, І. Ю. (2020). Перспективы использования лекарственного сырья момордика харанция для создания новых лекарственных средств.

70. Самадов, Б. Ш., & Мусаева, Д. М. (2020). Тенденция развития эпидемического процесса гепатита С в Узбекистане. Матеріали IV Міжнародної науково-практичної конференції. НФаУ, Харьков. Украина, 430-437.

71. Samadov, B. S., & Dubinina, N. V. (2016). Characteristics and trends of epidemic of hepatitis C in Uzbekistan and Ukraine.

72. Самадов, Б. Ш., Жалилов, Ф. С., & Жалилова, Ф. С. (2020). ВЫРАЩИВАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ «*МОМОРДИСА CHARANTIA L*» В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. Вестник науки и образования, (21-1 (99)), 92-98.